

SAHNA MADANIYATI VA TEATR SAN'ATNING MA'NAVIY QIYOFASI

Yunus Rajabiy nomidagi
O'zbek milliy musiqa san'ati instituti
Tillar, ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy
madaniyat" kafedrasi o'qituvchisi
Urinov Islombek Olimjon o'g'li
Yunus Rajabiy nomidagi
O'zbek milliy musiqa san'ati instituti
Xalq ijodiyoti an'anaviy xonandalik yo'nalish
1-bosqich talabasi
Allayorova Nigina Shodi qizi

Annotatsiya: Mazkur maqolada teatr san'atida sahna madaniyatining o'rni va ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Sahna madaniyati aktyor va san'atkorlarning sahnadagi nutqi, harakati, mimikasi, tashqi ko'rinishi hamda tomoshabin bilan bo'lgan muloqoti orqali namoyon bo'lishi yoritiladi. Shuningdek, sahna etikasi, nutq madaniyati va sahnaviy intizomning teatr san'ati rivojidadagi o'rni haqida fikr yuritiladi. Maqolada qo'g'irchoq teatri an'analari, milliy sahna san'atining shakllanish jarayoni hamda sahna madaniyatining yosh avlod ma'naviy tarbiyasidagi ahamiyati ham ko'rib chiqiladi. Tadqiqot davomida sahna madaniyatining san'atkor professional mahoratini namoyon etishdagi asosiy mezonlardan biri ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: sahna madaniyati, teatr san'ati, nutq madaniyati, sahna etikasi, aktyor mahorati, qo'g'irchoq teatri, milliy san'at, estetik tarbiya.

Annotation: This article analyzes the role and significance of stage culture in theatrical art from a scientific and theoretical perspective. The study highlights how stage culture is reflected through the speech, movements, facial expressions, appearance, and interaction of actors with the audience. The paper also discusses the importance of stage ethics, speech culture, and artistic discipline in the development of theater. In addition, attention is given to the traditions of puppet theater, the formation of national stage art, and the role of stage culture in the spiritual and aesthetic education of the younger generation. The research proves that stage culture is one of the main indicators of an artist's professional mastery and creative expression.

Keywords: stage culture, theater art, speech culture, stage ethics, acting skills, puppet theater, national art, aesthetic education.

Teatr san'ati insoniyat madaniyatining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. U inson ruhiyati, his-tuyg'ulari va ma'naviy kechinmalarini badiiy

obrazlar orqali ifodalash imkonini beradi. Teatr sahnasi orqali inson hayotining turli jihatlarini aks ettiriladi, jamiyatdagi muammolar ochib beriladi va ma'naviy qadriyatlar targ'ib qilinadi.

Sahna madaniyati teatr san'atining asosiy elementlaridan biri bo'lib, aktyorning sahnadagi xulqi, nutqi, tashqi ko'rinishi va tomoshabin bilan munosabatini belgilaydi. Sahna madaniyati aktyorning professional darajasi va ichki ma'naviy dunyosining ko'rsatkichi hisoblanadi.

Sahna etikasi masalasi professional teatrning ilk taraqqiyot bosqichlaridan shakllanib, to hana o'z dolzarbligiga egadir. Jumladan, professional teatr san'atining vujudga kelishi va uning estetik tarbiyadagi ahamiyatining ommalashishiga jadidlar alohida e'tibor qaratgan.

... adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor - bu avvalo xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho'lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo'q [1].

Sahna – bu nafaqat san'atning namoyish etiladigan makoni, balki ijrochi va tomoshabin o'rtasidagi ruhiy va hissiy bog'liqlikni o'rnatadigan muqaddas maydondir. Aktyor sahnaga qadam qo'yar ekan, u nafaqat aktyorlik chiqishini taqdim etadi, balki o'zining ichki dunyosini, his-tuyg'ularini, ijodiy qarashlarini ham namoyon qiladi. Sahna madaniyati esa bu jarayonda eng muhim omillardan biri bo'lib, ijro san'atining muvaffaqiyatini belgilovchi mezon sifatida namoyon bo'ladi.

Sahna san'atkorining ichki madaniyatini tomoshabin oldida ochib beradigan ko'zgudir. Sahna madaniyatining asosiy jihatlarini quydagilardan tashkil topadi.

Birinchidan, nutq madaniyati muhim o'rin tutadi. Sahnadagi so'zlar ravon, aniq va tushunarli bo'lishi kerak. Keraksiz so'zlar, qo'pol iboralar tomoshabinning didiga putur yetkazadi. Shu sababli san'atkor o'z nutqi ustida doimiy ishlashi zarur.

Ikkinchidan, tashqi ko'rinish va kiyinish madaniyati. Sahna — bu oddiy joy emas, u tomoshabin uchun bayramga o'xshaydi. San'atkorning kiyimi sahnaga mos, ozoda va mavzuga muvofiq bo'lishi lozim. Noto'g'ri tanlangan kiyim hatto eng chiroyli chiqishni ham xira qilishi mumkin.

Uchinchidan, harakat va mimika. Sahnadagi har bir qadam, yuz ifodasi, qo'l harakati tomoshabin tomonidan seziladi. Ortiqcha, sun'iy harakatlar tomoshabinni chalg'itadi. Tabiiylik esa ishonch uyg'otadi.

To'rtinchidan, vaqtni his qilish va intizom. Sahna madaniyatiga rioya qiladigan san'atkor tomoshabinning vaqtini hurmat qiladi: chiqishni kechiktirmaydi, ortiqcha cho'zmaydi, belgilangan tartibga amal qiladi.

San'at turlari orasida eng qadimiy, hamma teatrlarning beshigi bo'lgan qo'g'irchoq teatri, o'zining boy an'analariga, tarixiga ega bo'lgan betakror san'at turlaridan biridir. Uning ildizi xalqimizning folklori, urf-odati, udumlari va milliy

an'analarini o'zida saqlagan holda asrlar davomida ularni boyitib, ularga sayqal berib rivojlantirib kelmoqda. Bu san'at turiga ulkan baho berib, taniqli olim O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, san'atshunoslik fanlari doktori, professor Muxsin Qodirov shunday deydi: "Osiyo qo'g'irchoq teatri bu shunchaki ermak emas, balki bir qit'a xalqlarining falsafasi, tasviriy san'ati va albatta tillari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan muhim tarixiy badiiy hodisadir"[2].

Sahna madaniyati jamiyatning umumiy madaniyatiga bevosita ta'sir qiladi. Ayniqsa, yoshlar san'atkorlarni o'ziga namuna sifatida qabul qiladi. Masalan, Yulduz Usmonova yoki Rayhon kabi mashhur san'atkorlarning sahnadagi o'zini tutishi ko'plab muxlislar uchun o'rnak bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun san'atkor sahnada nafaqat ijrochi, balki tarbiyachi rolini ham bajaradi.

Sahna madaniyatini rivojlantirish uchun san'atkor doimiy ravishda ustida ishlashi kerak:

- nutq va sahna harakatlari bo'yicha mashqlar qilish;
- ustozlar va tajribali san'atkorlardan saboq olish;
- chiqishlarni tahlil qilib, xatolar ustida ishlash;
- tomoshabin fikriga quloq solish.

Musiqqa - inson ma'naviy olamining tarjimoni, u inson tuyg'usiga ta'sir etish bilan kishini ma'naviy jihatdan tarbiyalaydi. Bugungi kunda musiqqa san'ati insonlarga va ayniqsa yoshlarga ko'tarinki ruh berishi, ularni ijodkorlikga, bunyodkorlikga yo'naltirishi asrlik musiqiy meros vositasida estetik tarbiyalash muammosi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Mazkur jamiyatda yashayotgan kishilarning bilan ahamiyatlidir. Milliy san'atimizni rivojlantirish, yoshlarni milliy madaniyati ma'naviy-axloqiy, jihatdan yetukligi va yuksak darajadagi aqliy salohiyatiga bog'liqdir.

Sahnada ijro etilayotgan har bir asarning maqsad va g'oyasi tomoshabinni befarq qoldirmaydi. Chunki har bir ijro yuqori saviyaga, kuchli ta'sirchanlik xususiyatiga va albatta sahnaviy madaniyatga egadir. Yangi O'zbekiston ayniqsa, so'nggi yillarda jonajon Vatanimizda san'at va madaniyatga bo'lgan e'tibor benihoya ortganligi quvonarlidir.

Sahna madaniyati — hurmat, mas'uliyat va professional munosabatlar yig'indisi. Sahna — bu san'atkorning yuzi, tomoshabin bilan muloqot maydoni. Sahna madaniyati – bu faqat chiroyli gapirish yoki chiroyli kiyinish emas, balki tomoshabinga, san'atga va o'zingga bo'lgan hurmatdir. "Sahna madaniyati" tushunchasi ijrochining sahnada ijro etishning asosiy vazifasini ommaviy tomoshabinni san'at bilan tanishtirish, sahnaga va tomoshabinga hurmatni tarbiyalash uchun yordam beradigan xatti-harakatlari va psixologik munosabatlari, ijrochida, shuningdek, taqdim etilgan badiiy materialga har ikki tomonning (ijrochi va tomoshabin) qiziqishi majmuini o'z ichiga oladi.

Nutq madaniyati — bu insonning fikrini og‘zaki va yozma shaklda to‘g‘ri, aniq, ravon, ifodali va adabiy til me‘yorlariga mos holda bayon qilish qobiliyatidir. Nutq madaniyati insonning umumiy madaniy saviyasi, tafakkuri va ma‘naviy darajasini ko‘rsatadi.

Nutq madaniyati nafaqat fikrni bayon qilish vositasi, balki insonning **intellektual salohiyati, estetik didi va ijtimoiy tarbiyasining muhim ko‘rsatkichi** hisoblanadi. Nutq orqali inson o‘zining bilim darajasi, dunyoqarashi va ma‘naviy qiyofasini namoyon etadi. Shu sababli nutq madaniyati tilshunoslik, pedagogika, psixologiya va san‘atshunoslik kabi fanlar bilan chambarchas bog‘liq.

Yevropa teatr madaniyati uchun yetakchi omil hisoblanadi. Uning kelib chiqish ildizlari muammolari tahliliga kirishmasdanoq bunday jarayonlar turli mamlakatlar madaniyatlari uchun xos xususiyat ekanligini ta‘kidlash mumkin. Biroq o‘zbek musiqali dramasining rivojlanish tajribasi, uning tipologik xususiyatlari kabilar turli shart-sharoitlar taqozosi bilan Yevropa musiqali teatri bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi”[3].

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy nutqning inson hayotidagi o‘rni haqida shunday fikr bildirgan: insonni ulug‘laydigan ham, uni qadrsizlantiradigan ham uning so‘zidir. Bu fikr nutq madaniyatining inson shaxsini shakllantirishdagi muhim ahamiyatini ko‘rsatadi.

Teatr sahnasida aniqlik — bu aktyorning nutqi, harakati, mimikasi va sahnadagi barcha ifoda vositalarining aniq, tushunarli, maqsadga muvofiq va obrazga mos bo‘lishidir. Aniqlik sahna madaniyatining eng muhim elementlaridan biri bo‘lib, u tomoshabinning asarni to‘g‘ri tushunishiga yordam beradi.

Teatr sahnasida aniqlik aktyor ijodining markaziy tamoyillaridan biri bo‘lib, u sahna asarining mazmuni, g‘oyasi va obraz mohiyatini tomoshabinga to‘liq va ravshan yetkazishga xizmat qiladi. Aniqlik — bu nafaqat so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, balki har bir harakat, imo-ishora, qarash va intonatsiyaning **ichki ma‘no va dramatik vazifaga mos kelishidir**. Agar sahnadagi ifoda vositalari noaniq bo‘lsa, tomoshabin obrazni noto‘g‘ri tushunishi yoki umuman qabul qilmasligi mumkin.

Teatr nazariyotchisi Konstantin Stanislavskiy aktyor sahnada har bir so‘z va harakatni ongli va aniq bajarishi kerakligini ta‘kidlagan, chunki noaniq ijro obrazning ishonchliligini pasaytiradi. ko‘proq va aniq ma‘lumotlar kerak.

“Biz milliylik sifatlarini o‘zbek musiqali dramasining tashqi modellaridan emas (tashqi model bizni Yevropa san‘atining musiqiy-sahnaviy turlariga murojaat qilishga undaydi), uning milliy botiniy ohangdorligi, milliy badiiy-estetik idrok, milliy psixologiya ifodalovchi xonandalik va raqsning an‘anaviy shakllarida, uning obrazlar qatorida ko‘ramiz”[4].

Xulosa qilib aytganda, sahna madaniyati teatr san‘atining ajralmas va muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. U nafaqat aktyor yoki san‘atkorning professional

mahoratini namoyon etadi, balki tomoshabin bilan ma'naviy va estetik muloqotni ta'minlaydi. Sahna madaniyati nutqning aniqligi, harakat va mimikaning tabiiyligi, tashqi ko'rinishning sahnaga mosligi hamda ijodiy intizom orqali namoyon bo'ladi. Ushbu omillar birgalikda teatr asarining badiiy ta'sir kuchini oshirib, tomoshabinning asarni to'g'ri idrok etishiga yordam beradi.

Shuningdek, sahna madaniyati yosh avlodni estetik va ma'naviy jihatdan tarbiyalashda ham muhim o'rin tutadi. Chunki san'atkor sahnada nafaqat ijrochi, balki ma'naviy namuna sifatida ham namoyon bo'ladi. Shu bois sahna madaniyatini rivojlantirish, aktyorlarning nutq va ijro mahoratini oshirish, milliy teatr an'analarini asrab-avaylash hamda zamonaviy sahna san'ati bilan uyg'unlashtirish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev SH.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish -xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 2017-yil 4-avgust.
2. M.Qodirov. Teatr san'ati o'tmishdan lavhalar. Toshkent. Fan nashriyoti 1993-yil. 163-bet.
3. Xamidova M.A. San'at asarlari tahlili, tanqidi va targ'ibi. –Toshkent: O'zDSI, 2009 yil. 126-bet.
4. Xamidova M.A. San'at asarlari tahlili, tanqidi va targ'ibi. –Toshkent: O'zDSI, 2009 yil. 127-bet.